

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi.....	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar.....	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском языках и особенности их употребления.....	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalogizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalogizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi.....	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari.....	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка.....	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.....	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shlinqi to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



NUTQIY AKTLARNI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALAR
ЛЕКСИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ РЕЧЕВЫХ АКТОВ
LEXICAL MEANS EXPRESSING SPEECH ACTS

Raximova Feruzaxon Toxirjon qizi
 Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy aktlar va ulami yuzaga keltiruvchi leksik vositalar borasida so'z boradi. Birinchi navbatda, nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik birliliklar sifatida illokutiv fe'llar ajratildi. Illokutiv fe'llar va performative fe'llar haqida fikr yurtilib, ularning farqli xususiyatlari ajratildi. Kuzatish, analiz, sintez kabi umumiyligini, lingvistik tahlil, sinergetik, germenevistik kabi xususiy tahlil metodlaridan foydalananilib, 100 dan ortiq illokutiv fe'llar tahliliq tortildi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются речевые акты и лексические средства, обеспечивающие их реализацию. В первую очередь, в качестве лексических единиц, выражающих речевые акты, выделены иллокутивные глаголы. Анализируются различия между иллокутивными и перформативными глаголами, акцентируется внимание на их отличительных характеристиках. Применились общие методы, такие как наблюдение, анализ и синтез, а также специальные методы, включая лингвистический, синергетический и герменевтический анализ, что позволило провести исследование более 100 иллокутивных глаголов.

Abstract

This article discusses speech acts and the lexical means that bring them into being. First and foremost, illocutionary verbs were identified as lexical units representing speech acts. The distinctions between illocutionary and performative verbs are analyzed, with their differing characteristics outlined. General methods such as observation, analysis, and synthesis, alongside specific linguistic, synergetic, and hermeneutic analysis methods, were applied to examine over 100 illocutionary verbs.

Kalit so'zlar: nutqiy aktlar, illokutiv fe'l, illokutiv kuch, performativ, performativ fe'l, pragmatik mazmun, propozitsyon mazmun

Ключевые слова: речевые акты, иллокутивный глагол, иллокутивная сила, перформатив, перформативный глагол, прагматическое значение, пропозициональное значение

Key words: speech acts, illocutionary verb, illocutionary force, performative, performative verb, pragmatic meaning, propositional meaning

KIRISH

Tilshunoslik muammolarini kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida o'rganish natijasida bir qator kommunikativ faoliyat nazariyalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ulardan biri, pragmalingvistikaning o'zagini tashkil etuvchi nutqiy aktlar nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariya dastlab falsafada va pragmatik yo'naltirilgan umumiy faoliyat nazariyasida, keyinchalik esa tilshunoslikning bir qator sohalarida rivojlangan [5, 48].

Tilshunoslikda nutqiy akt muammosining yuzaga kelishi, o'rganilishi avstraliyalik faylasuf L. Vitgenshteynning lisoniy faoliyat masalasiga oid falsafiy qarashlari bilan bog'liq [4, 27]. Nutqiy aktlar nazariyasi ilk bor ingliz mantiqshunos olimi Jon Lengsho Ostin tomonidan ilgari surildi. U o'zining 1955-yilda Harvard universitetida o'qigan ma'rurasida so'z orqali faqatgina nimandir tasvirlash emas, balki aniq harakatlarni ham bajarish mumkinligi borasida fikrlarini bayon etgan. U muloqot jarayonidagi gaplarni shunga ko'ra "konstativ" va "performativ" larga ajratishni taklif qiladi. Bunda konstativlar gap mazmunida tasvirlash, ifodalash bo'lgan birliliklar bo'lsa, performativlar tatsvirlash xususiyatiga va u yoki bu axborotning rost yoki yolg'onligini ifodalashga xizmat qilmaydigan birliklardir. Ular aytيلاتقان harakatning bajarilishining bir qismi sifatida talqin etilgan [1, 5]. Unga ko'ra, performativ (ijro etuvchi) gaplar (performative utterances) o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun amalga oshishi kerak bo'lgan 6 qoidani keltirib o'tadi va bu qoidalarni

birortasi bajarilmay qolsa, performativ gap o'z vazifasini bajarolmaydi va maqsadga erishib bo'lmaydi, degan fikrlar bilan nutqiy aktlarning dastlabki taxminiy ishlash sxemasini ko'rsatib bergen.

Nutqiy aktning mazmun mohiyatini anglab yetishda uning ifodalanishidagi lisoniy vositalarning ahamiyati beqiyos. Lisoniy vositalar deganda, til va nutq birliklaridan ibrat bo'lgan vositalar tushuniladi. Tilda nutqiy aktlarni ifodalovchi lisoniy vositalar doirasi bir muncha keng bo'lib, ular bir butun tizimni tashkil etadi:

1. Fonetik vositalar. 2. Morfemik vositalar. 3. Leksik vositalar. 4. Sintaktik vositalar. 5. Supersegment vositalar [2, 407].

Ushbu maqolada nutqiy aktlarning yuzaga kelishida vosita vazifasini bajaruvchi ayrim leksik birliklarning tahlil va natijalarini borasida fikr yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Dunyo tilshunosligida "Nutqiy aktlar nazariyasi" termini dastlab XX asrning 80-yillarda nashr etilgan adabiyotlarda qo'llanilgani kuzatiladi. Pragmalingvistikarning asosiyo yo'nalishlaridan biri hisoblangan nutqiy aktlar nazariyasi an'anaviy va zamonaviy qarashlar sintezlashuvi va sinkretlashuvi natijasida yuzaga keldi [7, 234]. Uning tarixiga nazar tashlasak, dastlab xorij tilshunosligida mantiqshunoslardan Jon Lengsho Ostin va Jon Rojer Serllarning qarashlari asnosida yuzaga keldi. Ular tomonidan ilgari surilgan nutqiy aktlarning nazariy masalalari keyinchalik Z. Vendler, A. Deyvison, G.G. Klark, T.B. Karlson, J.F. Allan, R. Perro, D. Frank, G.N. Lich, T. A. van Deyk, J.L. Mey kabi olimlar tomonidan yanada chuqur o'rganilib, rivojlantirildi. Hozirgi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikda ham nutqiy aktlar mavzusidagi tadqiqotlarni ko'plab izlanuvchularning ishlarida kuzatishimiz mumkin. L.B Karayes, A. Shifrin, S.E Murrey, C. R. Jonson, R. Tomasello kabi tadqiqotchilarining ishlarida nutqiy aktlarning mazmuniy tuzilishi, ularni nutqiy muloqotda modellashtirish masalalari, shuningdek, sotsiolingvistik, neyropragmatik aspektlari o'rganildi.

Nutqiy aktlar muloqot jarayonida yuzaga kelishini hisobga olsak, ularning voqealnishida lisoniy va nolisoniy vositalarning muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash mumkin.

M. Hakimov bu borada, "Boshqa lingvistik birliklari singari nutqiy aktlar ham o'zining ifoda vositalariga hamda mazmuniy tuzilishiga ega bo'ladi. ...ularni ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalarni nazariy jihatdan ajratib ko'rsatish pragmalingvistika sohasi uchun muhimdir", - deydi [7, 143].

Ushbu maqolada nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalarni ajratish uchun kuzatish, analiz, sintez kabi umumiyligi, lingvistik tahlil, sinergetik, germenevtik kabi hususiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Birinchi navbatda, nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik birliklar sifatida illokutiv fe'llarni ajratib ko'rsatish va ularni tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Bu borada Sh. Safarov shunday deydi: "Pragmatika nutqiy ta'sir natijasining hosil bo'lishi ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga, masalan, pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi illokutiv fe'llar kiradi. Ushbu fe'llar muloqot maqsadi mazmuni va bajarilayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko'rsatish xizmatini o'taydilar" [6, 86]. Ya'ni, illokutiv fe'llar nutqiy aktlarni eksplisit tarzda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun: "Men ertaga shu yerda bo'laman" tuzilmasi implisit strukturada bo'lib, undagi kommunikativ maqsad intonatsiya, muloqot vaziyati, kontekstdan kelib chiqqan holda ma'lum bo'ladi. Neytral talaffuz ottenkasida va'da akti yuzaga keladi. Implisit tuzilma eksplisit tuzilma shakliga illokutiv fe'llar yordamida o'tkazilishi mumkin: "Men ertaga shu yerda bo'lishga va'da beraman".

Ba'zi adabiyotlarda "illokutiv fe'llar" termini "performative fe'llar" deb ham yuritiladi. Professor M. Hakimov buni performative fe'llarning ma'no strukturasida kommunikativ maqsadni ifodalovchi illokutiv belgining mavjudligi bilan izohlaydi [7, 186].

J. Ostinning leksiyalarida ham bu borada fikrlari berilgan. Uning aytishicha, eksplisit performativlar ifodalanganda, illokutiv akt ham mavjud bo'ladi [1, 131].

Ostin kontseptsiyasida til va faoliyatni birlashtirish tendentsiyasiga mos keluvchi performativ tushunchasi keyinchalik "illokutiv kuch" tushunchasi bilan yaqinlashtirildi. Bu bayonotning kommunikativ yo'nalishini ifodalaydi. "Buyurmoq", "va'da bermoq", "e'tiroz bildirmoq" kabi fe'llar performativ fe'llar hisoblanadi. Bunday fe'llar uchun indikativning hozirgi zamon 1-shaxs shakli

TILSHUNOSLIK

o'ziga xos funktional o'mini saqlab qoladi: "Men va'da beraman" — va'da berish aktini ifodalaydi, "U va'da bermoqda" esa bu aktning tavsifidir. Performativ fe'llar kommunikativ niyatning nutqiy ifodasini o'zida mujassam etadi. Kommunikativ maqsadlarini ifodalovchi fe'llar (masalan, "yolg'on gapirmoq", "haqoratlamoq") performativ qo'llash imkoniyatini bermaydi (Z. Vendler). Ko'pchilik performativ fe'llar propozitsiyani kiritadi va propozitsion munosabat fe'llari qatorida o'rganiladi. Ma'lum sharoitlarda performativ fe'l modallik so'zları tomonidan boshqarilgan pozitsiyada o'z funktisiyasini yo'qotmaydi. "Sizni valsga taklif qilsam bo'ladimi?" kabi savol taklif bilan tenglashtiriladi. Bu kabi performativ "yumshatilgan" yoki bilvosita performativ (hedged performative) deb ataladi.

Seri barcha illokutiv fe'llar ham performativ fe'llar bo'la olmasligini ta'kidlaydi: "Ko'pchilik illokutiv fe'llar performativ qo'llanilish imkoniyatiga ega, masalan, va'da bermoq (promise), buyurmoq (order). Ushbu fe'llar mos keluvchi aktlarni ularning o'zini ishlatalish orqali amalga oshiradi. Men va'da beraman (*I promise*), men buyuraman (*I order*) tarzida qo'llash mumkin. Ammo ba'zi aktlarni (maqtanish, qo'rqtish) bu tarzda amalga oshirib bo'lmaydi. Men maqtanaman (*I boast*), men ... deb qo'rqtaman (*I threaten*) deb aytilsa, bu aktlarni to'liq bajarib bo'lmaydi. Demak, har bir illokutiv fe'l performativ fe'llar bo'lolmaydi" [3, 345].

XULOSA

Yuqoridaagi fikrlarga tayangan holda shuni xulosa qilish mumkinki, illokutiv fe'llar amalga oshirilgan akt haqida xabar berish va shu bilan birga, nutqiy aktini aynan amalga oshirish vazifasini bajaruvchi, nutqiy akt turini aniqlab beruvchi fe'llar hisoblanadi. Aniq bir nutqiy aktini amalga oshiruvchi illokutiv fe'llar performativ fe'llar sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Austin, J.L. 1962. How to do things with words. — Oxford, 1962.
2. Raximova F.T. Nutqiy aktlarni voqealantiruvchi fonetik birliklar. "Filologyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi republika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qo'qon, 2024. – B. 405-409
3. Searle J.R. A Taxonomy of Illocutionary Acts. in Language, Mind and Knowledge, ed. by K. Gunderson (University of Minnesota Press, Minneapolis, 1975. – Pp. 334-369.
4. Курбонова, М.А. Узбек болалар нутқининг pragmatik xususiyatlari. Дисс... филол. фан. д-ри(DSc). — Тошкент, 2018.
5. Маслова, А.Ю. Введение в pragmalingvistiku. – М: Флинта, 2014.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.
7. Ҳакимов. М. Газиева. М. Прагмалингвистика асослари. – Тошкент, 2020.